

OLIY TA'LIMDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK KONSEPSIYASI

Qurbonova Zilola O'ralovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası

Pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

E-mail: zilolaqurbonova63@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22767207>

Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mazmuni, asosiy tamoyillari, zamonaviy pedagogik yondashuvlari hamda talabaning individual imkoniyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, oliy ta'limda talabaning ta'lim jarayonidagi subyektivlik maqomini kuchaytirish, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, mustaqil ta'limni rivojlantirish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik konsepsiyasining asosiy komponentlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar:

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, oliy ta'lim, pedagogik konsepsiya, individual ta'lim trayektoriyasi, talaba, kompetensiya, mustaqil ta'lim, raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogika, ta'lim jarayoni.

Kirish.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar ta'lim jarayonini tashkil etishning an'anaviy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Zamonaviy jamiyatda yuqori malakali mutaxassisdan nafaqat muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, ijodiy yondashish, o'z faoliyatini baholash va uzluksiz rivojlanish qobiliyatiga ega bo'lish ham talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'limda ta'lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va kasbiy maqsadlarini hisobga olishga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda talaba ta'lim jarayonining passiv ishtirokchisi sifatida emas, balki o'z ta'lim faoliyatini rejalashtira oladigan, maqsad qo'ya oladigan va natijalarini baholay oladigan faol subyekt sifatida qaraladi.

Asosiy qism. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasining markazida talabaning shaxsiy rivojlanishi turadi. Mazkur yondashuv ta'lim mazmuni va metodlarini barcha talabalar uchun bir xil shaklda tashkil etishdan ko'ra, ularning individual xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Oliy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishda quyidagi asosiy tamoyillar muhim hisoblanadi:

Birinchidan, individuallashtirish tamoyili. Talabalarning bilim darajasi, qobiliyati, qiziqishi va ta'lim olish sur'ati turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli ta'lim jarayonida individual topshiriqlar, differensial yondashuv va turli murakkablik darajasidagi o'quv vazifalaridan foydalanish

maqsadga

muvofiq.

Ikkinchidan, subyekt-subyekt munosabatlari tamoyili. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'qituvchi yagona bilim manbai sifatida emas, balki talabani ta'lim faoliyatini tashkil etuvchi, maslahat beruvchi va yo'naltiruvchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi.

Uchinchidan, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabani o'z qiziqishlari va kasbiy maqsadlariga mos ravishda fanlar, topshiriqlar, loyihalar va ta'lim resurslarini tanlash imkoniyatini kengaytirish muhimdir.

To'rtinchidan, mustaqil ta'limni rivojlantirish. Talabani mustaqil izlanishi, axborotni tahlil qilishi, muammoga yechim topishi va o'z bilimni mustaqil ravishda boyitishi shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muhim tarkibiy qismidir.

Beshinchidan, refleksiv yondashuv. Talaba o'zining o'quv faoliyati, erishgan natijalari va mavjud kamchiliklarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bunda o'z-o'zini baholash, portfolio, refleksiv kundalik va individual rivojlanish rejalaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi shaxsga yo'naltirilgan ta'limni yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermogda. Elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari, masofaviy ta'lim, adaptiv ta'lim texnologiyalari va sun'iy intellekt asosidagi vositalardan foydalanish talabani individual ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi.

Bunday texnologiyalar yordamida talaba o'ziga qulay vaqtda ta'lim resurslaridan foydalanishi, topshiriqlarni bajarishi, o'z natijalarini monitoring qilishi va o'zlashtirish darajasiga mos materiallarni tanlashi mumkin.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar pedagogning rolini kamaytirmaydi. Aksincha, o'qituvchidan talabani individual rivojlanishini kuzatish, pedagogik diagnostika olib borish va ta'lim jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish bo'yicha yangi kompetensiyalarni talab qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik modeli. Oliy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishning pedagogik modelini quyidagi tarkibiy qismlar asosida shakllantirish mumkin:

Maqsadli komponent - talabani shaxsiy, akademik va kasbiy rivojlanishini ta'minlash.

Mazmuniy komponent - individual ehtiyoj va kasbiy yo'nalishlarga moslashtirilgan ta'lim mazmunini ishlab chiqish.

Jarayonli komponent - interaktiv, muammoli, loyihaviy, hamkorlikka asoslangan va individual ta'lim metodlaridan foydalanish.

Texnologik komponent - raqamli ta'lim resurslari, multimedia, adaptiv texnologiyalar va zamonaviy pedagogik vositalardan foydalanish.

Baholash komponenti - talabani bilimni emas, balki uning rivojlanish dinamikasi, kompetensiyalari va mustaqil faoliyatini kompleks baholash.

Natijaviy komponent - mustaqil fikrlaydigan, ijodiy, kompetent, mas'uliyatli va uzluksiz rivojlanishga intiluvchi mutaxassisni shakllantirish.

Mazkur modelning samaradorligi pedagogik shart-sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Jumladan, oliy ta'lim muassasasida individual ta'lim muhitini yaratish, o'qituvchilarning pedagogik va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim resurslari bilan ta'minlash hamda talabalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Oliy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonining markaziga talabani shaxsiyati, ehtiyojlari, qobiliyatlari va kasbiy rivojlanishini qo'yadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning samaradorligi individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, talabani mustaqil faoliyatini rivojlantirish, pedagogik hamkorlikni kuchaytirish, refleksiv yondashuvni joriy etish va zamonaviy raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish bilan bevosita bog'liq.

Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish talabalarning

akademik va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rogers C. R. Freedom to Learn. - Columbus: Merrill, 1969.
2. Maslow A. H. Motivation and Personality. - New York: Harper & Row, 1970.
3. Knowles M. S. The Adult Learner: A Neglected Species. - Houston: Gulf Publishing, 1984.
4. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. - Maidenhead: Open University Press, 2011.
5. UNESCO. Guidance on Flexible Learning Pathways in Higher Education. - Paris: UNESCO.
6. OECD. The Future of Education and Skills 2030. - Paris: OECD.
7. Oliy ta'limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar va metodik manbalar.